**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,**
**FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*
*UDK: 338:69:339.137(575.171)*

**SATTAROV NE’MATJON AZATBAYEVICH**

# INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QURILISH KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:** Ismailov Akmal Maxsudovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

**Toshkent – 2024**

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISH**........................................................................... | **3** |
| **I BOB.** | **INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QURILISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI**................................ | **12** |
| **1.1§.** | Innovatsion iqtisodiyot sharoitida korxonalar raqobatbardoshligining o'ziga xos xususiyatlari............................................ | **12** |
| **1.2§.** | Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning asosiy jihatlari........................................................................... | **28** |
| **1.3§.** | Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning uslubiy asoslari........................................................................... | **37** |
| | *Birinchi bob bo'yicha xulosalar*............................................... | **59** |
| **II BOB.** | **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH TARMOG'I VA XORAZM VILOYATI QURILISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI**................................. | **61** |
| **2.1§.** | O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'i rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili................................................ | **61** |
| **2.2§.** | Xorazm viloyatidagi "SAYAT KURILISH" va "BUNYODKOR" MCHJ qurilish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning gorizontal tahlili................................................ | **73** |
| **2.3§.** | Xorazm viloyatidagi "SAYAT KURILISH" va "BUNYODKOR" MCHJ qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini vertikal tahlil asosida baholash................................................ | **84** |
| | *Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar*................................................ | **97** |
| **III BOB.** | **MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH ASOSIDA QURILISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**................................................................ | **99** |
| **3.1§.** | Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellashtirish................................................ | **99** |
| **3.2§.** | Qurilish korxonalari raqobotbardoshligini oshirishda mahsulot raqobatbardoshligi ta'minlash yo'llari...................................... | **108** |
| **3.3§.** | Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari........................................................................... | **117** |
| | *Uchinchi bob bo'yicha xulosalar*............................................... | **122** |
| **XULOSA** | ...................................................................................... | **124** |
| **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI** | ............................ | **127** |

# KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va raqamlashuvi sharoitida korxonalar darajasidagi raqobatbardoshlikni oshirishning ahamiyati kuchayib bormoqda. Zamonaviy qurilish korxonalari oldida turgan asosiy muammolardan biri doimiy oʻzgaruvchan tashqi muhitda ularning optimal rivojlanishi va faoliyatini taʼminlaydigan raqobatbardoshligiga erishishdir. Qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish mazkur korxonalarga qoʻshimcha raqobat ustunligini qoʻlga kiritish va bozorda yetakchi oʻrinlarni egallash maqsadida nafaqat texnologiyalarni, balki, qurilish jarayonini tashkil etish usullarini ham takomillashtirish imkonini beradi. “Qurilish sanoati tarmogʻining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi oʻrtacha 14 foizni tashkil qilib, oʻtgan 2020-yildagi pandemiya davrida, qurilish bozorining pasayishi kuzatilishi va “McKinsey & Company Construction and building technology: Poised for a breakthrough?” hisobotida qayd etilishicha, 2002–2018-yillarda sanoat oʻzining hajmiga qaramay, past koʻrsatkichlarni koʻrsatgan. Jumladan, 2021–2025-yillar oraligʻida turar-joy va tijorat koʻchmas mulklari qurilishiga global xarajatlar taxminan 17 trillion. dollarga oʻsishi kutilmoqda”[1]. Bu esa, innovatsion iqtisodiyot sharoitida qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning dolzarbligi ortib borayotganligini koʻrsatadi.

Jahonda innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish darajasini oʻrganish va uni baholash borasida koʻplab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, raqobatbardoshlikni miqdoriy baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlarni muvofiqlashtirish, ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda, rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, qurilish korxonalarning iqtisodiy faoliyatini baholash, qurilish korxonalarida raqobat muhitini yanada yaxshilash mazkur muammolar yechimiga bagʻishlangan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

---

[1] https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v 4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno#: